YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI
Volume 5 Issue 7 Noyabr 2026
https://phoenixpublication.net/ Online ISSN: 3030-3494

INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING TARJIMADA BERILISHI

Mamasodiqova Manzura Sobirboy qizi
Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universitetining Xorijiy filologiya fakulteti, Xorijiy til va adabiyoti yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o’zbek va ingliz tili frazeologik birliklari tahlili va ularning tarjimada berilishi haqida so’z yuritiladi. Shu bilan birgalikda,ingliz tilidagi frazemalarning o’zbek tiliga qay tartibda to’g’ri tarjima qilinishi yoritib beriladi.*

Kalit so’zlar. *frazeologiya, tarjima, idiomalar, ekvivalentlik, component, konsturuksiya.*

Annotation. *This article discussed the analysis of Uzbek and English phraseology and their translation. At the same time, it explains how to correct translate English phraseology into Uzbek.*

Keywords. *phraseology,translation,idioms,equivalence,component,construction.*

Dunyodagi barcha tillar singari ingliz tilida ham frazeologiyalarning o’rni alohida ahamiyat kasb etadi .Boshqacha qilib aytganda, frazeologik birliklar gapga o’zgacha joziba ,mazmun va rang-baranglik qo’shadi .Shu o’rinda , frezmalarni o’rganish va ularni boshqa tillarga tarjima qilish qamrovi kundan-kunga tilshunoslarni qiziqtirmoqda [ortmoqda].

Frazeologiya yunoncha “frases”-ifoda , “logos”- ta’limot degan ma’noni anglatadi va ikki yoki undan ortiq so’zdan tashkil topgan,ma’noviy jihatdan o’zaro bog’liq so’z birikmasi yoki gapga teng keladigan ,yaxlitligicha ko’chma ma’noda qo’llanadigan va bo’linmaydigan ,barqaror (turg’un) bog’lanmalarning umumiy nomidir. Insoniyat yaralibdiki tilga ,muloqotga ehtiyoj bor. Har bir millat –til egalari o’zlarining nutqini yanada chiroyliroq ,kengroq va tinglovchiga tezda yetib boradigan va tassavur orqali anglab yetsa bo’ladigan so’zlar jamlanmasini yaratganlar. Ularning paydo bo’lishi esa insonlarning jamiyatdagi narsa va voqea-hodisa qay tariqa idrok etishi va tassavur ko’lamiga sig’dira olganligi bilan chambarchas bog’liqdir. Tasvirlanayotgan shaxs , narsa ,voqea-hodisa yoki turli sifatlar asosan mubolag’a tarzida namoyon etilib kitobxonga yaxshi tanish bo’lgan obrazlar bilan ochib beriladi. Natijada tushunish tezlashadi ,oydinlashadi va yanada aniq va ishonchli hissiy tuyg’u yuzaga keladi. Kishilar atrof-muhit ,tabiat –hayvonot olami va o’simlik dunyosi bilan azaliy-azal hamnafas bo’lganliklari va hayotiy kuzatishlar natijasida, ularning turlari, fel-atvori, ko’rinishlari yuzasidan insonlarga qiyoslanadi. Jumladan ,kishilar u yoki bu xislat timsoli sifatida ma’lum bir hayvon yoki boshqa jonzodlarning tashqi ko’rinishi , xususiyati yoki fel-atvori jihatidan solishtirishar ekanlar , boshqalalarning ham ko’z o’ngida xuddi shu

o’xshatishlar butun umrga muhirlanib qolishi ajab emas. Shu tariqa shaxs yoki narsa va hodisalar haqida butun bir jamiyatning hayolida muayyan bir holat yoki tasvir vujudga keladi.

Ma’lumki , tafakkur qilish butun insoniyatga xos xos jarayon bo’lib, imkon qadar fikrimizni kengroq, ammo soddaroq qilib ya’ni biror narsaga taqqoslab yoki qiyoslab tushuntirishga harakat qilishimiz bois frazeologik birliklarning bir biriga mazmun jihatdan o’xshash bo’lganligi uchun tarjimada ham qiyinchiliklar biroz bo’lsada kamayadi.Ammo frazmalar ma’no jihatidan har doim ham so’zma-so’z tarjima qilinganda 100 foiz to’g’ri bo’lib chiqmaydi, chunki frazeologik birliklarning har xil turlari mavjud va tilshunoslar ularni o’rganayotgan yoki tarjima qilayotgan vaqtida frazmalarning asos qismiga ahamiyat berishadi. Misol uchun ingliz tilida quyidagi iboralarni to’liq ekvivalentlarni tarjima qilganda umumiy asos qismi o’xshash ekanligini guvohi bo’lamiz : to open one’s eyes –ko’zini ochmoq (anglab yetmoq), to give a hand –qo’l bermoq (yordam bermoq), to find one’s way – yo’lini topmoq (imkonini topmoq), to break someone’s heart – yuragini sindirmoq (xafa qilmoq), to lose one’s head – boshini yo’qotmoq (hayajonga tushmoq)

Qisman ekvivalentni tarjima qilish deganda biz frazmani ma’nosi va obrazligini qisman yoki ma’nosiz tarjima qilishni tushunmasligimiz kerak, bu atama ostida shunday narsa nazarda tutilganki, namuna sifatida berilgan brikmani ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjima qilganimizda ma’lum bir qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkin, aniqroq qilib aytganda tarjimon iborani to’liq so’zma so’z tarjima qilish orqali emas, balki, uning uning umumiy ma’no jihatidan obrazli qilib yoritib berishi o’rinlidir . Qisman ekvivalentlar uch qismga bo’linadi:

- Birinchi guruhga- ma’nosi ,stilistikasi va obrazdorligi yaqin bo’lgan, ammo leksik jihatdan farq qilinadigan iboralar kiradi. Misol sifatida, To make a mountain out of a molehill –pashshadan fil yasamoq (bu yerda leksik jihatdan farq qilinyapti) To go through thick and thin – har qiyinchilikdan o’tmoq (Iglizchada juft birlik, o’zbekchada umumlashtirilgan) To have a lot on one’s plate – ishi boshidan oshmoq (ma’no jihatdan umuman boshqa lekin tarjimada obrazlar yaxshi tasvirlangan) To be at the right place at the right time – vaqtida yetib kelmoq (inglizchada ko’p komponentli ,o’zbekchada qisqa) To put all one’s eggs into one basket – hammasini bir joyga bog’lab qoymoq (inglizchada ham, o’zbekchada ham deyarli ko’p so’zlar bilan ifodalangan)

Aksariyat vaziyatlarda tarjimonlik mahoratiga ham bog’liq bo’lgan ideomalar ham yo’q emas, ba’zida salbiy ma’no tarjimon tomonidan ijobiy konsturuksiya bilan yoki teskarisi, ijobiy ma’no salbiy so’zlar orqali tarjimada beriladi. Xususan, do not count your chickens before the hatched –jo’jani kuzda sanaymiz, all that glitters is not gold – har yaltiragan narsa oltin emas, actions speak louder than words—gap bilan emas, ish bilan baholanadi. the grass

is always greener on the other side—o’zga joy har doim ham yaxshi ko’rinadi. Bu yerda ham so’zlarning soni jihatidan farq bor, ham salbiy –ijobiy sifatlar taqqoslanyapti.

- Ikkinchi guruhga –ma’nosi obrazliligi, leksik tarkibi va stilistik bo’yoqdorligi bilan mos tushuvchi, lekin ba’zi formal belgilari ,so’z tarkibi farq qiluvchi frazeologizmlar kiradi. Masalan, to play into somebody’s hands – kimningdir qo’lida o’ynamoq. Bu yerda sonda farq bor, chunki barcha til va millatlar boshqa –boshqa bo’lganligi uchun ba’zida ularning soni yoki so’zlarining kam –ko’pligi bilan farq qilishi mumkin, lekin bu tarjimonlik mahoratidan kelib chiqqan holda , boshqa tilga tarjima qilinadi, ya’ni kitobxonning ko’z oldida umumiy obraz shakllanadigan bo’lishi kerak .
- Uchinchi guruhga –barcha belgilari mos tushadigan ammo obrazliligi jihatdan mos kelmaydigan frazeologizmlari kiradi. Ularda asosan son, so’zlarning kam –ko’pligi o’shash bo’ladi, ammo o’quvchining umumiy ma’no ya’ni obraz yaratib olishi qiyin bo’ladi . Yanada aniqroq aytadigan bo’lsak , u iboralarni boshqa tildan tarjima qilinganini faqatgina yodlagan insongina o’sha ibora nima haqida ekanligini biladi xolos. Negaki biz u iboradagi so’zlar orqaliy asl ma’noni chiqarolmaymiz , chunki birikmadagi bir necha so’zlar jamlanmasi birgina ma’noni anglatadigan vaziyatlar shular jumlasidandir: to spread before the eyes to be an open book – kaftdek , kaftdagidek ayon.

Bundan tashqari tarjimada qoliblashgan iboralar ham mavjud ,ularni asosan nutqda ishlatish maqsadga muvofiq.Negaki ular faqat muloqot vaqtida qo’llash uchun yaratilgan ideomalardir. Ular nuqtda tayyor holatda qo’llanilib muloqotni soddalashtirish va tinglovchiga yanada tushunarli bo’lishi uchun xizmat qiladi .Qoliblashgan frazmalar asosan kundalik muloqotda,norasmiy nutqda ya’ni ,salomlashuv ,xayrlashuv ,minnatdorchilik bildirish, uzr so’rash va tabriklash kabi nutqiy vaziyatlarda qo’llaniladi: how are you – qaleysiz (har doim ham holatni bildirmasligi mumkin), how do you do – xush kelibsiz, nice to meet you –rahmat sizga, thank you very much—yaxshi qoling. Xuddi shu tartibda inglizlar va o’zbeklarning aktiv nuqtida shu kabi jumlalar tayyor qolib sifatida ishlatiladi .

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, frazeologik birliklar barcha uslubdagi adabiyotlarda ko’p ishlatiladi . Mahoratli tarjimon u yoki bu frazeologizmning noaniq tarjimasiga yo’l qo’ymasligi kerak , chunki ayrim kichkina xato tufayli matn mohiyati o’zgarib ketishi, oddiy maqolni ham tarjimasida xatoliklarga yo’l qo’yishimiz mumkin .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunova N. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari. So’z san’ati xalqaro jurnali .—Toshkent, 2020 –

2. Болтаева Барно Исакуловна. Узбек тили фразеологик бирликларининг трансформацияси. (семантик-прагматик тахлил) . (PhD) Диссертацияси –

3. Кудрат Мусаєв. Таржима назарияси асослари: Дарслик.Т.: «Фан» нашриёти, 2005.-13

4. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – М., 2001

5. Прокольева С.М. Механизмы создания фразеологической образности. – М,1996. Beti yozilishi shart

6. Савицкий В.М. Английская фразеология: Проблемы моделирования. – Самара,1993. Beti yo’q

7. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.,1996.

xalqaro jurnali. – Toshkent, 2020.

8. Sherzod Djabbarov (2021). Инглиз тилида вақтнинг концептуаллашуви. Journal of Central Asian Social Studies. https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue02-a1-

9. Djabbarov, S. (2020). Статя ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗЕ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗЕ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(53). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view